

**V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MATEMATIKA INSTITUTI,
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

ATAMURATOV ALIMARDON ABDIRIMOVICH

**PARABOLIK KO'PXILLIKLARDA ANALITIK FUNKSIYALAR
NAZARIYASI**

01.01.01 – Matematik analiz

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Content of the abstract of doctoral (DSc) dissertation

Atamuratov Alimardon Abdirimovich Parabolik ko'pxiliklarda analitik funksiyalar nazariyasi.....	3
Атамуратов Алимардон Абдиримович Теория аналитических функций на параболических многообразиях.....	21
Atamuratov Alimardon Abdirimovich Theory of analytical functions on parabolic manifolds.....	41
E'lon qilingan ishlar ro'uxati Список опубликованных работ List of published works.....	45

**V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MATEMATIKA INSTITUTI,
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

ATAMURATOV ALIMARDON ABDIRIMOVICH

**PARABOLIK KO'PXILLIKLARDA ANALITIK FUNKSIYALAR
NAZARIYASI**

01.01.01 – Matematik analiz

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2017.2.DSc/FM69 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Matematika instituti va Urganch Davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<http://kengash.mathins.uz>) va "Ziyonet" ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy maslahatchi: **Sadullayev Azimbay**
fizika-matematika fanlari doktori, professor, akademik

Rasmiy opponentlar: **Shcherbina Nikolay Vasilyevich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Kudaybergenov Karimbergen Kadirbergenovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Imomkulov Sevdiyor Akramovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Sibir Federal universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil " 18 " fevral soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz. Website: www.mathinst.uz).

Doktorlik dissertatsiyasi bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (197-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil " 31 " yanvar kuni tarqatildi.
(2025 yil " 31 " yanvardagi 2-raqamli reyestr bayonnomasi).



U.A.Rozikov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., akademik

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

U.U. Jamilov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar ko‘pchilik holatlarda kompleks ko‘pxilliklar va xususan Riman sirtlari bilan bog‘liq matematik modellarga keltiriladi. Riman sirtlari nazariyasida kompleks tekisliklarga xos xususiyatga ega sirtlar parabolik va birlik doiraga ekvivalent sirtlarga esa giperbolik Riman sirtlari deya klassifikatsiya qilinadi. Umuman olganda paraboliklik tushunchasi mutaxassislar tomonidan turlicha tavsiflanib kelinadi. Masalan, Kobayashi va Karateodori metrikalari terminida (triviallik – paraboliklik, trivial bo‘lmaslik – giperboliklik), maxsus qamrov funksiyasini mavjudligi va boshqalar. Ba’zi olimlar tomonidan esa trivial bo‘lmagan chegaralangan golomorf funksiyalarning mavjud bo‘lmasligi (sust paraboliklik) bilan ham xarakterlanadi. Ko‘p o‘lchamli kompleks analizda Nevanlinna qiymatlar taqsimoti nazariyasini umumlashtirish maqsadida P.Griffits-J.King va W.Stolllar paraboliklik tushunchasini maxsus plyurisubgarmonik qamrov funksiyasi mavjudligi sharti bilan kiritishadi. Bunday parabolik ko‘pxilliklar va ularda aniqlangan analitik funksiyalar nazariyasi dinamik sistemalar nazariyasi, meromorf akslantirishlarning qiymatlari taqsimotini o‘rganishda, fraktal geometriya va boshqa ko‘pgina sohalarida tadbiq etilib kelinmoqda. Shu sababdan parabolik ko‘pxilliklarda analitik funksiyalarning xossalari tadqiq etish va xususan polinomial yaqinlashtirish masalalarini o‘rganish bu yo‘nalishdagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda jahonda plyuripotensiallar nazariyasi metodlari murakkab modellarni tadqiq etishning muhim matematik asosi sifatida xizmat qilmoqda. Ma’lumki, kompleks ko‘pxilliklarda analitik funksiyalar nazariyasi lokal tarzda quriladi. Modellashtirilgan jarayon haqida umumiy tasavvurlarni hosil qilish uchun tadqiqot obyektlarining global xossa va xususiyatlarini bilish talab etiladi. O‘z navbatida bu muammolar parabolik ko‘pxilliklarda analitik funksiyalar nazariyasini ancha sifatli, kuchli global natijalar bilan boyitishni talab etadi. Parabolik ko‘pxilliklarda analitik funksiyalar va polinomlar fazolarini o‘rganish, polinomial approksimatsiya, algebraik to‘plamlarni o‘rganish tez polinomial approksimatsiya va analitik davom o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish mazkur dissertatsiya ishining tadqiqot maqsadiga kiradi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega bo‘lgan statistik fizika va mexanikaning dolzarb yo‘nalishlariga e’tibor kuchaytirildi. Jumladan, ko‘p kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi va plyuripotensiallar nazariyasining zamonaviy matematikaning hamda nazariya fizikaning turli sohalaridagi tatbiqlariga e’tibor qaratilgan. Natijada, parabolik ko‘pxilliklarda potensiallar nazariyasi asoslarini ishlab chiqishda, ekstremal funksiyalarni o‘rganishda va analitik funksiyalarni polinomlar bilan yaqinlashtirish bo‘yicha ko‘pgina muhim natijalarga erishildi. Matematik fizika, nochiziqli analiz, o‘lchovlar nazariyasi va stoxastik jarayonlar kabi ilmiy sohalarida xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy

vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi¹. Qaror ijrosini ta‘minlashda parabolik ko‘pxilliklarda analitik funksiyalar nazariyasini rivojlantirish, kompleks Monj-Amper operatoriga asoslangan potensiallar nazariyasini asoslash shuningdek, ekstremal plyurisubgarmonik funksiyalar va analitik funksiyalarni polinomlar bilan yaqinlashtirish masalalarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta‘limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387- son Qarori, 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli Qarori, 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097 sonli farmoni, 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy-ilmiy tadqiqotlar sharhi. Paraboliklik tushunchasi va uning golomorf hamda meromorf funksiyalarning qiymatlari taqsimoti nazariyasiga tatbiq etilishi bilan bog‘liq tadqiqotlar dastavval Prinston (AQSh) universitetida joriy qilingan. Keyinchalik Vuppertal (Germaniya) universiteti ilmiy maktabi vakillari parabolik ko‘pxilliklarda Nevanlinna nazariyasini ishlab chiqdilar. Tuluzadagi Fransuz matematiklar maktabi sharofati bilan parabolik ko‘pxilliklar nazariyasiga plyuripotensiallar nazariyasi usullari kirib keldi. Bu yerda shuningdek, parabolik ko‘pxilliklarda polinomlar tushunchasi ham kiritildi. Parabolik ko‘pxilliklarning geometrik jihatlari Furrye instituti (Fransiya), Indiana (AQSh), Tulon (AQSh), Florensiya (Italiya) universitetlarida o‘rganilgan. Bu markazlarda parabolik ko‘pxilliklarni katta o‘lchamli fazolarga joylashtirish va parabolik qatlamlanishlar o‘rganilgan. Parabolik ko‘pxilliklarda analitik va plyurisubgarmonik funksiyalar fazolari Sabanchi (Turkiya) universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Matematika instituti va Urganch Davlat universitetida keng o‘rganilmoqda.

Parabolik ko‘pxilliklar va ularning turli kengaytmalari kompleks dinamik sistemalar, Nevanlinna nazariyasi, analitik funksiyalar fazolari nazariyasi va boshqa sohalarda keng ko‘lamli tatbiqqa ega ekanligi bilan bugungi kunda ko‘pgina xorijiy ilmiy markazlar tadqiqot predmetiga aylangan. Ular jumlasiga,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta‘limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi № PQ-4387-son qarori

Vetnam respublikasidagi Tian Long va Nguyen universitetlari, Xitoydagi Renmin va Chyonking universitetlari, Chexiya respublikasidagi Palatskiy va Tomash Bat universitetlari, AQShdagi Hyuston universiteti, shuningdek Tayvandagi Matematika institutini kiritish mumkin.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'tgan asrning 80-yillariga kelib, ko'p o'lchamli kompleks analizda zaruriyati tufayli plyuripotensiallar nazariyasiga asos solindi. Ushbu nazariya ko'p o'lchamli kompleks analizni ko'pgina yangi fundamental natijalar bilan to'ldirdi va ular bugungi kunda nazariy fizika va matematikaning turli sohalarida qo'llanilib kelinmoqda. Tatbiqiy matematikaning asosiy obyektlarining kompleksifikatsiyasi kompleks ko'pxilliklarga olib keladi. Kompleks o'zgaruvchili funksiyalarning geometrik nazariyasida kompleks ko'pxilliklarni alohida strukturaga ega bir nechta turlari tavsiflanadi va ular ma'lum bir masalalar yechimini soddalashtirishga xizmat qiladi. Ular orasida Riman sirtlari, analitik va algebraik to'plamlarga alohida e'tibor qaratilgan. Parabolik ko'pxilliklar, ularda geometrik usullaridan tashqari plyuripotensiallar nazariyasi metodlari ham effektiv qo'llanilishi bilan alohida ahamiyatlidir. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar 1970 yillarda boshlangan bo'lib, parabolik ko'pxilliklarni o'rganishda sezilarli natijalarga erishilgan. Ular orasida parabolik ko'pxilliklarni algebraik joylashtirilishini ta'minlab beruvchi egrilik shartlari tadqiq etilgan R.Fut ishlari, parabolik qatlamlanishlar egriligi tadqiq etilgan D.Byorns ishlari diqqatga sazovordir.

A.Zeriahi tomonidan parabolik ko'pxilliklarda plyuripotensiallar nazariyasi asoslari ishlab chiqildi, M.Ru va J.Vang tomonidan esa parabolik ko'pxilliklarda Nevanlinna nazariyasining ikkinchi asosiy teoremasi isbot qilingan. K.Ataxanov, A.Sadullayev, G.L.Ashlin, Y.Liu va M.Ru ishlari parabolik ko'pxilliklarda golomorf va meromorf akslantirishlar uchun defekt divizorlar tadqiq etilgan. A.Aytuna, J.Krone, T.Terzio'g'li ishlarida parabolik ko'pxilliklarda aniqlangan analitik funksiyalarning Freshe fazolarining chiziqli-topologik xossalari tadqiq etilgan bo'lsa, A.Aytuna, A.Sadullayev tomonidan parabolik ko'pxilliklar klassifikatsiyasi keltirilib, polinomlar fazosining nazariy-potensial xossalari o'rganilgan. M.Kalka, G.Patrizio ishlari qatlamlanuvchi qat'iy parabolik ko'pxilliklarga bag'ishlangan va F.Forstnerich tomonidan Shteyn ko'pxilliklarining singulyar va nosingulyar qatlamlanishi o'rganilgan. A.S.Snaebjarnarson Shteyn ko'pxilliklarida polinomial approksimatsiya masalalari o'rganishga o'z hissasini qo'shgan.

Bu sohadagi zamonaviy tadqiqotlar bir nechta yo'nalishlarda olib borilmoqda va qator muhim natijalarga erishilmoqda. A.Sadullayev va X.Kamolov ishlarida parabolik analitik sirtlarda plyuripotensiallar nazariyasi asoslari ishlab chiqilgan. V.Chen va B.T.Nguyenlar tomonidan esa p-parabolik Keler ko'pxilliklarida Nevanlinna nazariyasi asosiy teoremlari isbotlangan. Yaqinda P.Peshka, J.Mikesh, X.Chuda, M.Shin ishlarida va J.Chen, K.Zang ishlarida harakatlanuvchi maqsadlar bilan kesishuvchi parabolik ko'pxilliklarda meromorf akslantirishlar uchun Nevanlinna nazariyasining asosiy teoremlarining umumlashgan versiyalari

isbotlangan. Bu ishlar nazariyani rivojlanishi va uning matematikaning turli sohalariga tadbiq etilishini rivojlanishida katta hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishlari O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Xorazm bo‘limi ilmiy tadqiqot rejalariga va Urganch davlat universiteti “Matematik tahlil” kafedrasida ilmiy tadqiqot rejalariga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi parabolik ko‘pxilliklarda analitik funksiyalarning global xossalarini va polinomial approksimatsiyasi haqidagi asosiy fundamental teoremlarni isbotlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

regulyar parabolik ko‘pxilliklarni tadqiq etish. Ikkita regulyar parabolik ko‘pxilliklarning Dekart ko‘paytmasini regulyar parabolik bo‘lishini isbotlash;

regulyar parabolik ko‘pxilliklarning qism ko‘pxilliklarini regulyar bo‘lishlik shartlarini aniqlash;

kompleks fazolarda analitik funksiyalar grafiklarini regulyar parabolik bo‘lishini ko‘rsatish. Analitik funksiyalar grafiklari ustida Sichak va Zahariuta ekstremal funksiyalarining ekvivalentligini isbotlash;

Veyershtass polinomi nollari to‘plamining to‘ldiruvchisini S -parabolik bo‘lishini isbotlash;

Veyershtass polinomi nollari to‘plamining to‘ldiruvchisida polinomlar tuzilishini aniqlash;

Veyershtass polinomi nollari to‘plamining to‘ldiruvchisini regulyar parabolik bo‘lish kriteriyasini olish;

parabolik ko‘pxilliklarda Φ_ρ Sichak ekstremal funksiyasining xossalarini isbotlash. Parabolik ko‘pxilliklarda kompakt to‘plamlarning regulyarligini tadqiq etish;

parabolik ko‘pxilliklarda Φ_ρ ekstremal funksiyalar terminida Bernshteyn-Uolsh teoremasining analogini isbotlash;

parabolik ko‘pxilliklarda Runge teoremasining analogini isbotlash;

algebraik ko‘pxilliklarda ekstremal Grin funksiyasi va Sichak ekstremal funksiyalarining ekvivalentligini isbotlash;

algebraik ko‘pxilliklarda $V(z, K)$ Grin funksiyasi terminida Bernshteyn-Uolsh teoremasining analogini isbotlash.

Tadqiqotning obykti. Parabolik ko‘pxilliklar va parabolik ko‘pxilliklarda aniqlangan analitik va plyurisubgarmonik funksiyalar. Parabolik ko‘pxilliklarda plyuripotensiallar nazariyasi.

Tadqiqotning predmeti. Parabolik ko‘pxilliklarda aniqlangan analitik funksiyalar fazosi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada potentsiallar nazariyasi, ko‘p kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi va Monj-Amper nochiziqli differensial operator nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

parabolik ko'pxilliklarning Dekart ko'paytmasida polinomlar ko'rinishi tavsiflangan va golomorf funksiyalar fazosida polinomlar sistemasining to'laligi orqali regular parabolik ko'pxilliklar Dekart ko'paytmasining yana regular parabolik bo'lishligi isbotlangan;

analitik funksiyalar grafiklari ustida polinomlar va plyurisubgarmonik funksiyalar fazolarini tavsiflash orqali Sichak va Zahariuta ekstremal funksiyalarining ekvivalent bo'lishligi ko'rsatilgan;

Veyershtass polinomi nollari to'plami tashqarisidagi sohalarda analitik funksiyalar maxsus poliedrlardagi Veyl qatoriga yoyilmasi koeffitsiyentlari uchun baholashlar olingan va Veyershtass polinomi nollari to'plami to'ldiruvchisidan iborat parabolik ko'pxilliklarning regulyarligi kriteriyasi isbotlangan;

kompakt to'plamlar Dekart ko'paytmasi uchun ekstremal funksiyaning bu kompaktlar ekstremal funksiyalari maksimumi bo'lishi ko'rsatilib, regular kompaktlar Dekart ko'paytmasi regulyar bo'lishi haqidagi tasdiq isbotlangan;

parabolik ko'pxilliklarda katta o'lchamli fazolarga maxsus lokal joylashtirilishi va qism ko'pxilliklardan golomorf davom ettirish haqidagi Oka-Kartan teoremasidan foydalanib, Bernshteyn-Uolsh va Runge teoremlarining analoglari isbotlangan;

algebraik qism ko'pxilliklarda aniqlangan polinamlarni butun kompleks fazoga darajasini nazorat qilgan holda polinom sifatida davom ettirilishi asosida algebraik ko'pxilliklar ustida Grin funksiyasi va Sichak ekstremal funksiyalarining ekvivalent bo'lishligi hamda Bernshteyn-Uolsh teoremasining analogi Grin funksiyasi terminida isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ko'p kompleks o'zgaruvchili funksiyalarning geometrik nazariyasi usullari, matematik analiz usullari, funksional analiz usullaridan foydalangan holda keltirilgan qat'iy matematik isbotlarga tayanadi. Bundan tashqari dissertatsiya natijalarining nufuzli impakt-faktorli jurnallarda chop etilgani hamda dissertatsiya ishining yetakchi ilmiy markazlarda muhokamadan o'tganligi, muallif olgan natijalarning respublika va xorijdagi olimlarning ishlarida e'tirof etilishi va ularga havolalar berilganligi ham dissertatsiya natijalarining ishonchliligiga asos bo'la oladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Parabolik ko'pxilliklarda Bernshteyn-Uolsh teoremasi analogining isbot qilangani, algebraik ko'pxilliklar ustida Sichak va Grin ekstremal funksiyalarining ekvivalent bo'lishini ko'rsatilishi, analitik funksiyalar va polinomial yaqinlashtirishlar nazariyasi asoslarining ishlab chiqilgani dissertatsiya tadqiqotlarini ilmiy ahamiyatini ko'rsatadi.

Dissertatsiya natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati Veyershtass algebraik to'plamlarining to'ldiruvchisida polinomlar tuzilishining aniqlangani va bunday ko'pxilliklarning regulyar bo'lishlik kriteriyasi olingani bilan xarakterlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiya tadqiqoti jarayonida olingan ilmiy natijalar quyidagi yo'nalishlarda amaliyotga joriy qilingan:

Veyershtass polinomi nollari to'plami tashqarisidagi sohalarda analitik funksiyalar maxsus poliedrlardagi Veyl qatoriga yoyilmasi koeffitsiyentlari uchun

baholashlardan va Veyershtass polinomi nollari to'plami to'ldiruvchisidan iborat parabolik ko'pxilliklarning regulyarligi kriteriyasidan OT-Φ4-88 raqamli "Aralash tipdagi ikkinchi va undan yuqori tartibli tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalalarni tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyihada singulyar koeffitsiyentli aralash tipdagi masalalar uchun chegaraviy masalalarni yechishda qo'llanilgan (Matematika institutining 2024 yil 4-oktabrdagi 2/352-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarni qo'llanishi turli analitik defektli parabolik fazolarda maxsus polynomial funksiyalarning qurilishi aralash tipdagi masalalarda koeffitsiyentlar singulyarligini inobatga oluvchi bazislar va maxsus vazn funksiyalarini aniqlash imkonini bergan;

parabolik ko'pxilliklarda polinomlarni tavsiflanishi, analitik funksiyalar grafiklari ustida va algebraik qism ko'pxilliklarda polinomlar tuzilishidan OT-Φ4-30 raqamli "Ikki marta nochizikli kross sistemaning manba, konvektiv ko'chish, o'zgaruvchan zichlik, manba yoki yutish ta'siridagi sifat xossalarini tadqiq qilish" mavzusidagi fundamental loyihada nochizikli differensial tenglamalar yechimlarini sifat xossalarini ishbotlashda qo'llanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2024 yil 11-oktabrdagi 04/11-8623-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarni qo'llanilishi, sonli turg'unlik xususiyatiga ega polinomlar qurish yordamida ikkinchi va yuqori tartibli nochizikli tenglamalar uchun qiyin chegaraviy masalalar va o'zgaruvchan koeffitsiyentlarning maxsusliklariga oson moslashish imkonini bergan;

parabolik ko'pxilliklarda analitik funksiyalarni polinomlar bilan yaqinlashtirish haqidagi Bernshteyn-Uolsh-Sichak teoremasining analogi Tuluza universiteti Matematika institutining kompleks analiz laboratoriyasining geometrik funksiyalar nazariyasi va Keler geometriyasi bo'yicha tadqiqotlarida parabolik ko'pxilliklarni algebraik joylashtirish nuqtai nazaridan strukturaviy tadqiq etishga qo'llanilgan (Tuluza Matematika institutining 2024 yil 4-sentabrdagi ma'lumotnomasi, Fransiya). Natijalarni qo'llanilishi parabolik ko'pxilliklarni algebraik joylashtirishi bo'yicha Keler va Shteyn ko'pxilliklarni joylashtirishi haqidagi Kodaira va Remmert kriteriyalariga o'xshash tasdiqlarni isbotlash uchun yangi shartlarni aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari quyidagi xalqaro va Respublika ilmiy anjumanlarida muhokama qilingan:

"Analiz va matematik fizika" mavzusidagi ikkinchi AQSh-O'zbekiston xalqaro konferensiyasi (Urganch, 2017 y.), "Matematika va fizikaning zamonaviy masalalari" mavzusidagi birinchi O'zbekiston-Isroil xalqaro konferensiyasi (Toshkent, 2017 y.), "Fundamental matematika muammolari va tatbiqlari" mavzusidagi Respublika ilmiy konferensiyasi (Navoi, 2019 y.), "Matematika va kompyuter ilmlarida yangi jabhalar" mavzusidagi to'rtinchi O'zbekiston-Isroil xalqaro konferensiyasi (Toshkent, 2020 y.), "Matematikaning zamonaviy muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy konferensiyasi (Nukus 2020 y.), "Zamonaviy matematika va uning tadbiqlari" mavzusidagi Respublika ilmiy konferensiyasi (Toshkent, 2020 y.), "Operatorli algebralar, noassosiativ strukturalar va yondosh muammolar" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiyasi

(Toshkent, 2020 y.), “Matematikaning zamonaviy muammolari” mavzusidagi birinchi xalqaro Al-Xorazmiy ilmiy konferensiyasi (Urganch, 2022 y.), “Matematika va mexanikaning zamonaviy masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyasi (Baku, 2023 y.), “Kompleks analiz va uning tatbiqari” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiyasi (Krasnoyarsk, 2023 y.), Gonchar va Vitushkin xotiralariga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy konferensiya (Moskva, MI RAN, 2023 y.).

Ilmiy natijalar doimiy ravishda Urganch Davlat universitetining “Kompleks potentsiallar nazariyasi va uning tadbirlari” ilmiy seminarida va O‘zbekiston Milliy universiteti matematik analiz kafedrasining “Kompleks analizning zamonaviy masalalari” ilmiy seminarida muhokama qilinib kelingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish nashr ettirilgan, jumladan, milliy jurnallarda 7 ta, xalqaro jurnallarda 5 ta maqola, ilmiy anjumanlarda 11 ta tezis nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish qismi, 5 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, 145 betlik matndan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Parabolik Shteyn ko‘pxilliklari”** deb nomlanuvchi birinchi bobi yordamchi xarakterga ega. Ushbu bobda parabolik ko‘pxilliklar nazariyasidan asosiy ta‘riflar va muhim faktlar keltiriladi, shuningdek, kompleks potentsiallar nazariyasining asosiy prinsiplari va metodlari tavsiflanadi.

1-ta‘rif. Agar n o‘lchamli X kompleks analitik ko‘pxillik uchun quyidagi shartlar bajarilsa:

- 1) X golomorf ajratilgan, ya‘ni X ning turli p_1 va p_2 nuqtalari uchun X da aniqlangan shunday f golomorf funksiya topilib, $f(p_1) \neq f(p_2)$ munosabat o‘rinli bo‘lsin;
- 2) X golomorf qavariq, ya‘ni har qanday $K \subset X$ kompakt qism to‘plam uchun uning golomorf qavariq qobig‘i bo‘lgan ushbu

$$\hat{K} = \{z \in X : |f(z)| \leq \sup_K |f|, \forall f \in \mathcal{O}(X)\}$$

to‘plam X ning kompakt qismi bo‘lsin, bu yerda $\mathcal{O}(X)$ – X da aniqlangan barcha golomorf funksiyalar to‘plami;

- 3) har bir $z \in X$ nuqta uchun n ta shunday $f_1, f_2, \dots, f_n \in \mathcal{O}(X)$ funksiyalar topilib, bu nuqtaning biror atrofida lokal koordinatalarni tashkil etsin.

U holda X ko'pxillikka Shteyn ko'pxilligi deyiladi.

Shteyn ko'pxilliklarining kompleks fazolarga joylashtirilishi haqidagi quyidagi teorema muhim geometrik xarakteristika hisoblanadi. Chunki buning natijasida har qanday Shteyn ko'pxilligini biror kattaroq o'lchamdagi kompleks fazoning analitik qism ko'pxilligi sifatida qarash mumkin bo'ladi.

1-teorema. n o'lchamli X kompleks ko'pxillik Shteyn ko'pxiligi uchun unda aniqlangan $f_1, f_2, \dots, f_{2n+1} \in \mathcal{O}(X)$ golomorf funksiyalar topilib, $f = (f_1, f_2, \dots, f_{2n+1}) : X \rightarrow \mathbb{C}^{2n+1}$ akslantirish xosmas regulyar akslantirish bo'ladi, ya'ni X xosmas ravishda \mathbb{C}^{2n+1} kompleks fazoga joyashtiriladi.

Parabolik ko'pxilliklarni kiritishda va o'rganishda asosiy vosita bu $(dd^c u)^n$ Monj-Amper operatori va plyuripotensiallar nazariyasi hisoblanadi. Aytaylik, X Shteyn ko'pxilligi bo'lib, uning o'lchami n bo'lsin. Biz differensiallarning standart $d = \partial + \bar{\partial}$ va $d^c = \frac{\partial - \bar{\partial}}{4i}$ belgilashlaridan foydalanamiz. $u \in C^2(X)$ funksiya uchun

$$(dd^c u)^n = dd^c u \wedge dd^c u \wedge \dots \wedge dd^c u \quad (n \text{ marta})$$

operatorga kompleks Monj-Amper operatori deyiladi va $u \in X$ da hajm elementi orqali quyidagicha aniqlanadi:

$$(dd^c u)^n = n! \det \left(\frac{\partial^2 u}{\partial z_j \partial \bar{z}_k} \right) \beta_n.$$

Bu yerda $\beta_n = \left(dd^c |z|^2 \right)^n = \left(\frac{i}{2} \right)^n dz_1 \wedge d\bar{z}_1 \wedge dz_2 \wedge d\bar{z}_2 \wedge \dots \wedge dz_n \wedge d\bar{z}_n$.

2-ta'rif. Agar X Shteyn ko'pxilligida yuqoridan chegaralangan plyurisubgarmonik funksiyalar faqat o'zgarmas funksiyalar bo'lsa, ya'ni X da aniqlangan o'zgarmasdan farqli yuqoridan chegaralangan plyurisubgarmonik funksiyalar mavjud bo'lmasa, u holda X ga *parabolik* ko'pxillik deyiladi.

3-ta'rif. Agar X Shteyn ko'pxilligida shunday maxsus $\rho(z) \in psh(X)$ plyurisubgarmonik qamrov funksiyasi mavjud bo'lib, bu funksiya biror kompakt qism to'plamdan tashqarida maksimal bo'lsa, u holda bu ko'pxillikka *S-parabolik* deyiladi. Agar yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda $\rho(z)$ funksiyaning uzluksizligi ham talab etilsa, u holda X ko'pxillikka *S*-parabolik* deyiladi.

S-parabolik ko'pxilliklarda plyuripotensiallar nazariyasi asoslari ishlab chiqilgan, shuningdek polinom tushunchasi va ekstremal Grin funksiyasi, regulyar kompakt va boshqa tushunchalarni aniqlash mumkin.

S-parabolik bo'lgan X ko'pxillik berilgan bo'lib, $\rho(z)$ uning maxsus qamrov funksiyasi bo'lsin. Biz quyidagi $u(z) \leq c_u + \rho^+(z), z \in X$, shartni qanoatlantiruvchi $u \in psh(X)$ funksiyalarning $\mathfrak{A}_\rho(X)$ Lelon sinfini qaraymiz. Bunda c_u o'zgarmas son u funksiyaga bog'liq.

$K \subset\subset X$ kompakt uchun

$$V_\rho(z, K) = \sup \left\{ u(z) : u \in \mathfrak{A}_\rho(X), u|_K \leq 0 \right\}.$$

funksiyani aniqlaymiz. U holda $V_\rho^*(z, K) = \overline{\lim_{w \rightarrow z} V_\rho(w, K)}$ yuqori regulyarizatsiyaga K kompaktning ρ -Grin funksiyasi deyiladi.

4-ta'rif. Agar $f(z) \in \mathcal{O}(X)$ funksiya uchun shunday c va d musbat haqiqiy sonlar topilib, barcha $z \in X$ uchun ushbu

$$\ln |f(z)| \leq d\rho^+(z) + c \quad (1)$$

tengsizlik o'rinli bo'lsa, u holda $f(z)$ funksiyaga X da aniqlangan ρ -polinom (ko'phad) deyiladi. Bu yerda $\rho^+(z) = \max \{0, \rho(z)\}$. (1) tengsizlikni qanoatlantiruvchi d sonlar ichida eng kichigiga polinomning darajasi deyiladi (umuman olganda d ning minimumi butun son bo'lmasligi ham mumkin).

$K \subset X$ kompakt uchun plyuriregulyar nuqtalar ta'rifi klassik holdagi kabi aniqlanadi: $V_\rho^*(z^0, K) = 0$ tenglikni qanoatlantiruvchi barcha $z^0 \in X$ nuqtalar plyuriregulyar nuqtalar deyiladi. Agar $K \subset X$ kompaktning barcha $z \in K$ nuqtalarida $V_\rho^*(z, K) = 0$ tenglik bajarilsa, u holda bu kompaktga plyuriregulyar kompakt deyiladi.

2-teorema. S^* -parabolik ko'pxillik X berilgan bo'lib, $\rho(z)$ uning maxsus qamrov funksiyasi bo'lsin. Quyidagi psevdosharlarni qaraymiz:

$$K_r = \{z \in X : \rho(z) \leq r\}, B_r = \{z \in X : \rho(z) < r\},$$

bunda $r > r_0 = \min_X \rho(z)$. U holda quyidagi tengliklar o'rinli:

$$V_\rho^*(z, K_r) = \sup \{\rho(z) - r, 0\} = (\rho - r)^+(z), z \in X,$$

$$\omega^*(z, K_r, B_R) = \sup \left\{ \frac{\rho(z) - R}{R - r}, -1 \right\}, \forall z \in X (R > r).$$

3-teorema(W.Stoll). (X_1, ρ_1) va (X_2, ρ_2) mos ravishda n_1 va n_2 o'lchamli S^* -parabolik ko'pxilliklar bo'lsin. Biz $n = n_1 + n_2$ o'lchamli $X = X_1 \times X_2$ ko'pxillikni aniqlaymiz va $\pi_1 : X \rightarrow X_1$, $\pi_2 : X \rightarrow X_2$ proyeksiyalar bo'lsin. U holda $X = X_1 \times X_2$ ko'pxillik $\rho = \ln(e^{\rho_1 \circ \pi_1} + e^{\rho_2 \circ \pi_2})$ maxsus qamrov funksiyasi bilan S^* -parabolik ko'pxillik bo'ladi.

S^* -parabolik ko'pxilliklar ularda aniqlangan analitik funksiyalarning Freshe fazolari nuqtai nazaridan qaysidir ma'noda \mathbb{C}^n fazo tipidagi mukammal ko'pxilliklar sirasiga kiradi. Darajalangan Freshe fazosi bu sanoqli normalangan Y

fazo va uning topologiyasini aniqlovchi tayinlangan $(\|\cdot\|_s)$ yarimnormalarning $(Y, \|\cdot\|_s)$ juftligidir.

A.Aytuna ishlarida Shteyn ko'pxilliklarini parabolik bo'lishi va bu ko'pxillikda aniqlangan analitik funksiyalarning Freshe fazosining aniq chiziqli-topologik xossasi o'rtasida bog'liqlik o'rnatilgan. $\mathcal{O}(X)$ analitik funksiyalar fazosi bo'lsa, $\mathcal{O}(X)$ dagi topologiya esa X ning kompakt qism to'plamlarida tekis yaqinlashish topologiyasidir.

4-teorema(A.Aytuna). n o'lchamli X Shteyn ko'pxilligi uchun quyidagilar ekvivalent:

- X parabolik ko'pxillik;
- $\mathcal{O}(X)$ Freshe fazosi sifatida $\mathcal{O}(\mathbb{C}^n)$ fazoga izomorf.

Parabolik ko'pxilliklar orasida ko'phadlar to'plami trivial bo'lganlari ham mavjud. Bunday ko'pxillikka misol qurish uchun quyidagi teorema yordam beradi

5-teorema (Aytuna-Sadullayev). Shunday $K \subset \mathbb{C}$ polyar kompakt va \mathbb{C} da subgarmonik va $\mathbb{C} \setminus K$ to'plamda garmonik bo'lgan $u(z)$ funksiya mavjudki, $u|_K = -\infty$ va

$$\lim_{z \rightarrow K} \frac{u(z)}{\ln \text{dist}(z, K)} = 0. \quad (2)$$

tenglik bajariladi.

Agar biz yuqoridagi teoremada ta'kidlangani kabi K kompakt to'plamni olib $X = \overline{\mathbb{C}} \setminus K$ ko'pxillikni qarasaq, u holda maxsus qamrov funksiyasi sifatida yana shu teoremada aytilgan $\rho(z) = -u(z)$ potensialni olamiz. U holda $\rho(z)$ $X \setminus \{\infty\}$ da garmonik, $\rho(\infty) = -\infty$ va $z \rightarrow K$ da $\rho(z) \rightarrow \infty$ shartlar bajariladi. Shunday qilib, (X, ρ) S^* -parabolik ko'pxillik bo'ladi. Bundan tashqari bu ko'pxillikda notrivial bo'lgan ko'phad mavjud emas, ya'ni X da aniqlangan ρ -ko'phad faqat o'zgarmas funksiyalar bo'ladi.

Dissertatsiyaning "**Regulyar parabolik ko'pxilliklar**" deb nomlangan ikkinchi bobida ularda aniqlangan polinomlarning boy oilasiga ega bo'lgan S -parabolik ko'pxilliklari o'rganiladi.

5-ta'rif. Agar S -parabolik X ko'pxillik uchun unda aniqlangan barcha ρ -polinomlar fazosi $\mathcal{P}_\rho(X)$ analitik funksiyalar fazosi $\mathcal{O}(X)$ da zich bo'lsa, u holda X *regulyar parabolik* deyiladi.

Mazkur bobing birinchi va ikkinchi paragraflarida regulyar parabolik ko'pxilliklarga bir qator misollar va ularning xossalari o'rganilgan. Xususan, \mathbb{C}^n kompleks fazoda butun funksiyalarning grafiklari qaralib, bunday ko'pxilliklarning regulyar parabolik bo'lishligi ko'rsatiladi.

Fazoda analitik funksiyaning grafigi $X = \{z \in \mathbb{C}^n : z_n = f('z)\}$, bu yerda $z = ('z, z_n) = (z_1, z_2, \dots, z_{n-1}, z_n)$, har doim S -parabolik bo'lib, maxsus qamrov funksiyasi sifatida $\rho(z) = \ln^+ \|z\|$ funksiyani olish mumkin. Bunda $\rho(z) \in psh(\mathbb{C}^n)$ va $\{z \in \mathbb{C}^n : \rho(z) \leq M\} \subset\subset X, \forall M > 0$, shuningdek $(dd^c \rho)^{n-1} = 0$ tenglik $\{z \in X : \|z\| \leq 1\} \subset\subset X$ kompaktdan tashqarida bajariladi. X da ρ -polinomlar odatdagidek aniqlanadi.

6-teorema. *Analitik funksiyaning $X = \{z \in \mathbb{C}^n : z_n = f('z)\}$ grafigi $\rho = \ln \|z\|$ qamrov funksiyasi bilan regulyar parabolik ko'pxillik bo'ladi, ya'ni har qanday $F(z) \in \mathcal{O}(X)$ golomorf funksiya X ning kompakt qism to'plamlarida ρ -polinomlar bilan tekis yaqinlashtirilishi mumkin.*

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi regulyar parabolik ko'pxilliklarning xossalriga bag'ishlangan. Bunda ikkita regulyar parabolik ko'pxilliklarning Dekart ko'paytmasi yana regulyar parabolik bo'lishi isbotlanadi va regulyar parabolik ko'pxilliklarning qism ko'pxilliklarini regulyarlik shartlari o'rganiladi.

7-teorema. (X_1, ρ_1) va (X_2, ρ_2) mos ravishda n_1 va n_2 o'lchamli regulyar parabolik ko'pxilliklar bo'lsin. Biz $n = n_1 + n_2$ o'lchamli $X = X_1 \times X_2$ ko'pxillikni aniqlaymiz va $\pi_1 : X \rightarrow X_1, \pi_2 : X \rightarrow X_2$ proyeksiyalar bo'lsin. U holda $X = X_1 \times X_2$ ko'pxillik $\rho = \ln(e^{\rho_1 \circ \pi_1} + e^{\rho_2 \circ \pi_2})$ maxsus qamrov funksiyasi bilan regulyar parabolik ko'pxillik bo'ladi.

8-teorema. n o'lchamli X regulyar parabolik ko'pxillik va f_1, f_2, \dots, f_m – chiziqli erkli ρ -polinomlar bo'lsin. Agar ushbu

$$F = \{z \in X : f_1(z) = 0, \dots, f_m(z) = 0\},$$

analitik to'plam bo'shmas bo'lib, kritik nuqtalarga ega bo'lmasa (ya'ni F da $df_1 \wedge df_2 \wedge \dots \wedge df_m \neq 0$), u holda F ning bog'lamli komponentalari X ning regulyar parabolik qism ko'pxilligi bo'ladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Veyershtrass analitik to'plami to'ldiruvchisining regulyarligi**” deb nomlanib, bunda $A \subset \mathbb{C}^n$ analitik to'plamlarni to'ldiruvchisining regulyar parabolikligi o'rganiladi.

\mathbb{C}^n fazoda Veyershtrass ko'phadining nollari to'plami berilgan bo'lsin

$$A = \left\{ z = ('z, z_n) \in \mathbb{C}^n : F(z) := z_n^m + f_{m-1}('z)z_n^{m-1} + \dots + f_1('z)z_n + f_0('z) = 0 \right\},$$

bu yerda $f_j('z), j = 0, 1, 2, \dots, m-1$, koeffitsiyentlar $'z = (z_1, z_2, \dots, z_{n-1}) \in \mathbb{C}^{n-1}$ o'zgaruvchining (barchasi ham ko'phad bo'lmagan) butun funksiyalari. U holda $X = \mathbb{C}^n \setminus A$ ko'pxillik S^* -parabolik bo'lib, uning maxsus qamrov funksiyasi sifatida ushbu

$$\rho(z) = \frac{1}{2} \ln \left(|z|^2 + \left| F(z) + \frac{1}{F(z)} \right|^2 \right): \rho(z) \in psh(X)$$

funksiyani olishimiz mumkin. Bu funksiya $Q = \{F'(0, z_n) = 0\}$ chekli to'plamdan tashqarida maksimal, ya'ni $(dd^c \rho)^n = 0, z \in X \setminus Q$.

9-teorema. *Bizga quyidagicha*

$$A = \left\{ (z, z_n) \in \mathbb{C}^n : F(z) := z_n^m + f_{m-1}(z)z_n^{m-1} + \dots + f_1(z)z_n + f_0(z) = 0 \right\} \quad (3)$$

Veyershtrass polinomining nollari to'plami berilgan bo'lib, $f_j(z), j = 0, 1, 2, \dots, m-1$, koeffitsiyentlar $z = (z_1, z_2, \dots, z_{n-1}) \in \mathbb{C}^{n-1}$ o'zgaruvchining butun funksiyalari bo'lsin. Agar $F(z)$ funksiya z bo'yicha

ko'phad bo'lmasa, u holda $\rho(z) = \frac{1}{2} \ln \left(|z|^2 + \left| F(z) + \frac{1}{F(z)} \right|^2 \right)$ maxsus qamrov

funksiyasi bilan S^ -parabolik bo'lgan $X = \mathbb{C}^n \setminus A$ ko'pxillikda aniqlangan f golomorf funksiya darajasi d ga teng ρ -polinom bo'lishi uchun uning quyidagi*

$$f(z) = \sum_{|k|=0}^d a_k z_1^{k_1} z_2^{k_2} \dots z_{n-1}^{k_{n-1}} (F(z))^{k_n} + \sum_{|k|=0}^{d-1} b_k z_1^{k_1} z_2^{k_2} \dots z_{n-1}^{k_{n-1}} \left(\frac{1}{F(z)} \right)^{k_n+1}, \quad (4)$$

chekli yoyilmaga ega bo'lishi zarur va yetarli. Bunda a_k va b_k o'zgaruvchilar koeffitsiyentlar.

Quyidagi teorema $X = \mathbb{C}^n \setminus A$ to'ldiruvchining regulyar bo'lishligi kriteriyasidir.

10-teorema. *$X = \mathbb{C}^n \setminus A$ ko'pxillik regulyar bo'lishi uchun $f(z) = z_n$ funksiyaning X ning ichida ρ -polinomlar bilan tekis yaqinlashtirilishi zarur va yetarli.*

